
Qirguli mavzeidagi “Kimyogar” tantanalar majmuasida iftorlik tadbiri o‘tkazildi

Ramazon oyini munosib tarzda o‘tkazish maqsadida “Mahalla” xayriya jamoat fondi tashabbusi bilan kam ta‘minlangan oilalar holidan xabar olinib, ro‘zadorlar uchun iftorlik dasturxonlari yozilmoqda. Bugun ana shunday xayrli tadbir “Kimyogar”, “Tabassum” va “Madaniyat” mahallalarida istiqomat qilayotgan ro‘zadorlar tashkillandi.

“Kimyogar” tantanalar majmuasida bir dasturxon atrofida yig‘ilgan mahalladoshlar bunday e‘tibordan behad xursand bo‘ldi. Nuroniylar va diniy ulamolar yurtimizga tinchlik, qut-baraka, xalqimizga ahillik tilab duolar qilishdi.

Shuningdek, bugun iftorlik tadbirlari shahrimizdagi “Qirguli”, “Abdurahmon Jomiy”, “Al-Xorazmiy”, “A I-Farg‘oniy”, “Yoshlar” va “Navro‘z” mahallalarida ham o‘tkazilmoqda.

2023-04-01 10:31:29